



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SO'G'LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI TERMIZ FILIALI



ANTENATAL PARVARISH

**Ilmiy-amaliy konferensiya
Materiallar To'plami**

TERMIZ 2025

СОДЕРЖАНИЕ

ОЦЕНКА ПРОГНОСТИЧЕСКИХ КРИТЕРИЕВ РАЗВИТИЯ ПРЕЭКЛАМПСИИ / НАЖМУТДИНОВА Д.К., ТАДЖИТДИНОВА К.Э.	1
ПРОГНОСТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПЕРЕКИСНОГО ОКИСЛЕНИЯ ЛИПИДОВ КРОВИ В РАЗВИТИИ ПОСЛЕРОДОВОГО ЭНДОМЕТРИТА / КАМИЛОВА И. А., УМАРОВ А.Р.	2
ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПРИ НЕСОСТОЯТЕЛЬНОСТИ РУБЦА НА МАТКЕ ПОСЛЕ ПОВТОРНЫХ КЕСАРЕВЫХ СЕЧЕНИЙ: КЛИНИЧЕСКИЕ НАБЛЮДЕНИЯ И РЕЗУЛЬТАТЫ / Д.Р.САДИКОВА, Х.С.ЭРМАТОВА	3
ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВНЯ ДЕПРЕССИИ ПО ШКАЛЕ БЕКА У ЖЕНЩИН ПОСЛЕ МЕДИКАМЕНТОЗНОГО АБОРТА / Ф.А.ХАЙТБОЕВА, А.Х.КАРИМОВ	5
КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ ПОЛИПА ЭНДОМЕТРИЯ У ЖЕНЩИН С БИЛИАРНОЙ ПАТОЛОГИЕЙ / Д.Р.САДИКОВА, Д.Х.ИРНАЗАРОВА, Д.С.ХУЖАЕВА	6
RISK FACTORS FOR ENDOMETRIAL HYPERPLASIA WITH ABNORMAL UTERINE BLEEDING IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE / KARIMOVA K.O., MAGZUMOVA N.M.	7
THE EFFECT OF REPRODUCTIVE HISTORY ON THE COURSE OF PREGNANCY / AKHTAMOVA M. N.	9
СРАВНИТЕЛЬНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО КОМПЛЕКСА НА ПРЕГНАВИДАРНОМ ЭТАПЕ И В 1 ТРИМЕСТРЕ У ЖЕНЩИН С ВРТ И С ЕСТЕСТВЕННО НАСТУПИВШЕЙ БЕРЕМЕННОСТЬЮ / Д.Т.КАЮМОВА, Д.Т. ЯНГИБАЕВА, Ф.ТУРДИЕВА	11
ОПТИМИЗАЦИЯ МЕТОДОВ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ОЦЕНКИ СОСТОЯНИЯ ПЛОДА ПРИ АВО-ИММУНИЗИРОВАННОЙ БЕРЕМЕННОСТИ / Г.З.ЧОРИЕВА, Д.Р.САДИКОВА	13
THE EFFECT OF FERRITIN ON THE EFFECTIVENESS OF LABOR INDUCTION / D.Q.SALOXOVA, D.Y.YULDASHEVA	14
ADENOMIOZ RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINING AHAMIYATI / D.Y.YULDASHEVA, D.AXMEDOVA	16
CHANOQ A'ZOLARI PROLAPSI MAVJUD AYOLLAR HAYOT SIFATINI BAHOLASH / D.A. GADOYEVA, D.K. NAJMUTDINOVA	17
ANTIFOSFOLIPID SINDROMIDA PERINATAL NATIJALAR / G.U.TURAYEVA, X.T.SHODIYEVA	18
QOG'ANOQ PARDANING MUDDATIDAN OLDIN YORILISHIDA HOMILADORLIK, TUG'RUQ VA NEONATAL NATIJALARNING BASHORATLASH MEZONLARI / Z.R. ISKANDAROVA, D.Y. YULDASHEVA	20
HOMILADORLIKNI ERTA MUDDATLARIDA XROMOSOMA KASALLIKLARINI ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARINI BAHOLASH / U.A. JO'RAYEVA, F.A. ATAXODJAYEVA, G.A. AXMEDOVA	21
EVALUATION OF MODERN DIAGNOSTIC METHODS FOR CHROMOSOMAL DISORDERS IN EARLY PREGNANCY / U.A. JO'RAYEVA, F.A. ATAKHODJAEVA	22
EVALUATION OF THE PREVENTION OF PREECLAMPSIA IN EARLY PREGNANCY, TAKING INTO ACCOUNT RISK FACTORS / SH.O. KHALILOVA, I.A.KAMILOVA, N.I.PARVIZI	24
MONITORING PREGNANT INDIVIDUALS EXPERIENCING NAUSEA AND VOMITING UP TO 12 GESTATIONAL WEEK / L.I.KHIKMATULLAYEVA, D.Y. YULDASHEVA	25
GESTATION QANDLI DIABETDA HOMILADORLIK ASORATLARINING RIVOJLANISHIGA XAVF OMILLARINING TA'SIRINI O'RGANISH / M.A. SIDIKXODJAEVA, L.O. YANGIBOYEVA	27
YUVENIL DISMENORIYA RIVOJLANISHIDA XAVF SOLUVCHI OMILLAR / M.B. MUHAMMADOVA	28

HOMILADORLIKDA PLATSENTANING PAST JOYLASHUVI RIVOJLANISHINING XAVF OMILLARI / N.M.MAGZUMOVA, SH.U.NORQULOVA, G.A.AHMEDOVA	29
KESAR KESISHDAN KEYINGI VENOZ TROMBOEMBOLIK ASORATLAR PROFILAKTIKASI SIFATINI BAHOLASH / G.A.PO'LATOVA, M.A.SIDIKXODJAYEVA	30
SEMIZLIK MAVJUD BO'LGAN HOMILADOR AYOLLARDA HOMILADORLIK VA TUG'RUQNING NATIJALAR / M.SH.QAMBAROVA, D.YU. YULDASHEVA, U.P.MAMADALIYEVA	32
NORMAL JOYLASHGAN YO'LDOSHNING BARVAQT KO'CHISHIDA XAVF OMILLARI / E.N.RAXMATOVA, X.T. SHODIYEVA	33
RISK OF DEVELOPING CERVICAL PATHOLOGY IN WOMEN USING COCS / U.I.TASHBAEVA, F.A. ATAKHODJAEVA	34
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ У ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ В АНАМНЕЗЕ ЭНДОМЕТРИТ / Ф.А. АТАХОДЖАЕВА, К.Т. ЯКУБОВА	36
ГАСТРОИНТЕСТИНАЛЬНЫЕ СИМПТОМЫ КАК МАРКЕРЫ ДЕФИЦИТА ФЕРРИТИНА У ЖЕНЩИН С БЕСПЛОДИЕМ / Н.М.ЗОИТОВА, Д.Ю.ЮЛДАШЕВА	38
ФЕРРИТИН КАК ЧУВСТВИТЕЛЬНЫЙ МАРКЕР ДЕФИЦИТА У ЖЕНЩИН С БЕСПЛОДИЕМ: СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА С ГОМОЦИСТЕИНОМ / ЗОИТОВА Н.М., ЮЛДАШЕВА Д.Ю.	39
АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ МИНИ-СЛИНГОВ, ПРИ СТЕРССОВОМ НЕДЕРЖАНИИ МОЧИ / А.Х.ИСОКОВА	40
ANALYSIS OF THE USE OF MINI-SLINGS FOR STRESS URINARY INCONTINENCE / A.X.ISOKOVA, N.I.PARVIZI	41
КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА МИКРОБИОТЫ ВЛАГАЛИЩА У ЖЕНЩИН С АНЕМИЕЙ М.И.ТОЛИБОВА, Д.Р.САДИКОВА / ТАШКЕНТСКАЯ МЕДИЦИНСКАЯ АКАДЕМИЯ	43
KESARCHA KESISH AMALIYOTIDAN KEYIN ENDOMETRIT RIVOJLANISH XAVF GURUHLARINI ANIQLASH VA ERTA TASHXIS QO'YISH / F.A. ATAXODJAEVA, X.R.XOLBOYEVA	44
PIYELONEFRIT BILAN KASALLANGAN HOMILADOR AYOLLARDAN TUG'ILADIGAN CHAQALOQLARDA NEONATAL ASORATLARNI O'RGANISH / S.AXROROVA	45
ИЗУЧЕНИЕ ПОЛИМОРФИЗМА ЭСТРОГЕНОВЫХ ГЕНОВ РЕЦЕПТОРОВ В КЛИНИЧЕСКОМ ТЕЧЕНИИ МИОМЫ МАТКИ / Д.Ю.ЮЛДАШЕВА1, Д.Х.ИРНАЗАРОВА2	47
METABOLIK SINDROM FONIDA ODATLANGAN HOMILA TUSHISHI XAVFINI BAHOLASHDA INSULINREZISTENTLIK VA DISLIPIDEMIYANING STATISTIK AHAMIYATI / ATAXODJAEVA F.A., NABIYEVA R.M.	48
METABOLIK SINDROMLI AYOLLARDA ODATLANGAN HOMILA TUSHISHI RIVOJIDA OKSIDATIV STRESS VA YALLIG'LANISH MARKERLARINING AHAMIYATI / NABIYEVA R.M., ATAXODJAEVA F.A.	49
BACHADON ARTERIYASI PULSATSION INDEKSINI ANIQLASH ORQALI PREEKLAMPSIYA KELIB CHIQISHINI BASHORATLASH. XAMDAMOV I.F. / KAMILOVA I.A.	50
ВЛИЯНИЕ МИКРОБИОМЫ ВЛАГАЛИЩА НА РИСК ПРЕЖДЕВРЕМЕННЫХ РОДОВ И НЕОНАТАЛЬНЫЕ ИСХОДЫ КАРИМОВА М.Х. / ПАХОМОВА Ж.Е.	52
ROBSON CLASSIFICATION FOR CAESAREAN SECTION. NABIJONOVA G.M. / KAMILOVA I.A.	53
УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕДОПЕРАЦИОННОЙ ПОДГОТОВКИ ПРИ ПЛАСТИЧЕСКИХ ОПЕРАЦИЯХ ВЛАГАЛИЩА И ПРОМЕЖНОСТИ РУСТАМОВА М.Н. / КАЮМОВА Д.Т.	54

ПРОГНОСТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПЕРЕКИСНОГО ОКИСЛЕНИЯ ЛИПИДОВ КРОВИ В РАЗВИТИИ ПОСЛЕРОДОВОГО ЭНДОМЕТРИТА

КАМИЛОВА И. А. / УМАРОВ А.Р.55

“ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗЛИЧНЫХ ФОРМ ПРОГЕСТЕРОНОТЕРАПИИ ПРИ УГРОЗЕ НЕВЫНАШИВАНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ”

ШАРИПОВА Д.Ш. / КАМИЛОВА И.А.57

ОПТИМИЗАЦИЯ ТЕРАПИИ НЕВЫНАШИВАНИЯ У ПАЦИЕНТОВ С ПРИОБРЕТЕННОЙ ТРОМБОФИЛИЕЙ

ЮНУСАЛИЕВА Д.А. / САДЫКОВА Д.Р.58

ЕКТОРИК ХОМИЛАДОРЛИК ХАВФ ОМИЛЛАРИ ВА КЛИНИК КЕЧИШИНИ О’РГАНИШ / TINCHLIKOVA S.SH., KAYUMOVA D.T.59

ОПТИМИЗАЦИЯ ТАКТИКИ ВЕДЕНИЯ БЕРЕМЕННЫХ С УГРОЗОЙ ПРЕРЫВАНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ ДО 21 НЕДЕЛИ ГЕСТАЦИИ / АЛИЕВА М.Б., КАРИМОВ А.Х.60

ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПО ВЫЯВЛЕНИЮ И ВЕДЕНИЮ БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН С ФАКТОРАМИ РИСКА НА УРОВНЕ ПЕРВИЧНОЙ МЕДИКО-САНИТАРНОЙ ПОМОЩИ. / ДЖУРАЕВА Г.Т., НАЖМУТДИНОВА Д.К., МАМАТКУЛОВ Б.М.62

ПРЕЭКЛАМПСИЯДА БИОКИМЕВИЙ МАРКЁРЛАР / АСХАНОВА ГУЛИДА БОХОДИРОВНА, АХМЕДОВ ФАРХОД ҚАХРАМОНОВИЧ64

ПРЕЭКЛАМПСИЯ ХАВФИ, МУАММОНИ ЎРГАНИШ / НЕГМАТШАЕВА МУБИНА СИНОБЕК КИЗИ, НЕГМАТШАЕВА ХАБИБА НАБИЕВНА65

ИССЛЕДОВАНИЕ ЦИТОКИНОВОГО ПРОФИЛЯ У ЖЕНЩИН С ПРИВЫЧНЫМ НЕВЫНАШИВАНИЕМ БЕРЕМЕННОСТИ / АХМАДАЛИЕВА НИГОРА ЖУРАХОН КИЗИ, АХМЕДОВ ФАРХОД КАХРАМОНОВИЧ, АХМАДЖОНОВА ГУЛНОЗА МУРОДОВНА65

КОАГУЛОПАТИЯ БИЛАН АСОРАТЛАНГАН ТУГРУҚДА ГЕМОСТАЗ ТИЗИМИ ХОЛАТИ / УЛЖАБАЕВ ЖАВЛОН АБДУҒАНИ ЎҒЛИ, АХМАДЖОНОВА ГУЛНОЗА МУРОДОВНА67

HOMILADORLIKDA ASORATLANGAN MIOPİYANING YUQORI DARAJASIDA TO’R PARDADA KOMBINIRLANGAN DAVO MUOLAJALARI. PERIFERIK CHEGARALAB OLUVCHI LAZER KOAGULYATSIYA MUOLAJASI / QOSIMOVA HAYOTXON RUSTAM QIZI67

HOMILADORLIKDA COVID-19 INFEKSIYASINING TA’SIRI VA UNING ONA VA HOMILA SALOMATLIGIGA BO’LGAN XAVFLARI / SAFAROVA XURSHIDA FAYZULLA QIZI69

SON CHURRASINI ERTA TASHXISLASH VA DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH / SAGIRAYEV N.J., KARIMOVA Z.X., ISHKARAYEV SH.SH.70

“АНТЕНАТАЛ ПАРВАРИШДА ЗАМОНАВИЙ СИМУЛЯЦИОН ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ”.

АЛЛАМУРАТОВА У.Д¹, ХАМИДОВА М.С².71

ЎЗБЕКИСТОН, СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ҲОМИЛАДОРЛАРДА ФЕТО-ПЛАЦЕНТАР ДИСФУНКЦИЯ МУАММОСИНИНГ САБАБ ВА ОҚИБАТЛАРИ.

ЖЎРАЕВА Д.М

СУРХАНДАРЁ ВИЛОЯТИ ТЕРМИЗ ТУМАНИ “ОҚТОШ” КЛИНИКАСИ72

BACHADON CHANDIG’I HOLATINI BAHOLASHDA KLINIK – IMMUNOLOGIK VA UTT PREDIKTORLARI ASOSIDA ISH OLIV BORISH / SOATOVA N.A., MAGZUMOVA N.M., MUSAXODJAYEVA D.A.76

ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ И РОДОВ У ПАЦИЕНТОК С КОРПОРАЛЬНЫМ РУБЦОМ НА МАТКЕ ПОСЛЕ КЕСАРЕВА СЕЧЕНИЯ. / ЖОМГИРОВА ОЗОДА СҮЮН КИЗИ77

ТУҒРУҚДАН СЎНГ ҚОН КЕТИШЛАРИГА ЮҚОРИ ХАВФЛИ ГУРУХДАГИ ҲОМИЛАДОР АЁЛЛАРНИНГ
ЦИТОКИН ПРОФИЛИНИ БАҲОЛАШ / УМИРОВА М.А., КАРИМОВА Н.Н., РУСТАМОВА М.У.
.....78

ПЕРИМЕНОПАУЗА КАК ЕСТЕСТВЕННЫЙ ЭТАП ЖИЗНИ ЖЕНЩИНЫ / УРОЛОВА С.С79

COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФЕТОПЛАЦЕНТАР ДИСФУНКЦИЯ МАВЖУД АЁЛЛАРДА
ГОРМОНАЛ ВА ИММУНОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР ХУСУСИЯТЛАРИ

Холова З.Б., Шукуров Ф.И.81

of the infants' condition according to the Apgar scale, we see that in both groups the score was 7.9 points after 1 minute and 8.02 points after 5 minutes, respectively.

When analyzing the total protein, the average value was 58.05 g/l in group 1A and 55.24 g/l in group 1B. The results of the study also show that in group 1A, 10 (25%) of our 40 pregnant women underwent only 1 round of labor induction, while the remaining pregnant women underwent 2 and 3 rounds, respectively.

Conclusion: Women with anemia and low ferritin levels will demonstrate lower efficiency of labor induction (long latent period, high percentage of unsuccessful inductions). Impaired contractile activity of the myometrium will correlate with the severity of anemia. Correction of anemia before labor induction will increase the probability of successful vaginal delivery and reduce the risk of fetal hypoxia.

ADENOMIOZ RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINING AHAMIYATI

D.Y.Yuldasheva, D.Axmedova

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.

Dolzarbliqi: Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda adenomiozning uchrash tezligi oshib bormoqda. Kasallik etiologiyasi va patogenezini to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, turmush tarzi omillarining adenomioz rivojlanishida muhim rol o'ynashi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

Maqsadi – Adenomioz rivojlanishida turmush tarzi omillarining rolini o'rganish va ushbu omillarning kasallik patogeneziga ta'sir mexanizmlarini tahlil qilishdir. Xususan, oziqlanish, jismoniy faollik, stress va ekologik faktorlarning adenomioz bilan bog'liqligini ilmiy dalillar asosida asoslash hamda profilaktika choralarini belgilash.

Material va metodlari: Tekshiruv materiallari 2024-2025 yil oralig'ida Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi ginekologiya bo'limiga murojat qilib kelgan 10 ta ayolda o'rganildi.

Natijalar: Oziqlanish odatlari endokrin tizimga ta'sir qilishi orqali adenomioz rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'tkazilgan epidemiologik tadqiqot shuni ko'rsatdiki, fastfud va trans yog'lar bilan boyitilgan ratsionni iste'mol qilgan ayollarda adenomioz rivojlanish xavfi 45% ga oshgan ($p < 0.01$). Kamharakat turmush tarzi organizmda metabolik sindrom, insulin rezistentligi va ortiqcha tana massasi bilan bog'liq bo'lib, bu omillar adenomioz rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ortiqcha tana massasi estrogenning periferik ishlab chiqarilishini oshiradi va bachadonning

estrogen ta'siriga sezuvchanligini kuchaytiradi. Stress va uning gipotalamo-gipofizar-buyrak usti tizimiga (HPA) ta'siri adenomioz patogenezi uchun muhim faktor hisoblanadi. Doimiy stress ta'sirida bo'lgan ayollarda adenomioz rivojlanish xavfi 50% ga oshgani aniqlandi. Bu holat stressning kortizol va estrogen almashinuviga ta'siri bilan izohlanadi. Stressni kamaytiruvchi texnikalar (mindfulness, yoga, meditatsiya) qo'llangan ayollarda kasallik simptomlari 42% ga kamayganini ko'rsatdi. Atrof-muhit omillari, xususan, endokrin buzuvchi kimyoviy moddalar (bisfenol A, dioksinlar, ftalatlar) adenomioz rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Plastik idishlar, kosmetika va maishiy kimyoviy vositalar tarkibidagi kimyoviy moddalarga uzoq muddat ta'sir etilgan ayollarda adenomioz rivojlanish xavfi 47% ga oshgani aniqlandi.

Munozara: Ushbu tadqiqot natijalari adenomioz rivojlanishida turmush tarzi omillari muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Olingan ma'lumotlar ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar bilan mos kelib, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik yetishmovchiligi va stress kasallik xavfini oshirishini ko'rsatdi.

Xulosa: Adenomioz rivojlanishida turmush tarzi omillari muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, stressni kamaytirish va ekologik xavfsizlikka e'tibor berish kasallik xavfini kamaytirishi va uning simptomlarini yengillashtirishi mumkin.

CHANOQ A'ZOLARI PROLAPSI MAVJUD AYOLLAR HAYOT SIFATINI BAHOLASH

D.A. Gadoyeva¹, D.K. Najmutdinova²

1.,2. Toshkent tibbiyot akademiyasi Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrası

Dolzarbliigi. Chanoq a'zolari prolapsi (ChAP) ayollarda keng tarqalgan patologik holatlardan biri bo'lib, u nafaqat jismoniy noqulayliklar, balki psixoemotsional va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu kasallik hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, jismoniy faollikning cheklanishiga, siydik va axlat tutib turolmaslik muammolariga ham sabab bo'ladi. SHuning uchun ChAP bilan og'rigan ayollarning hayot sifatini o'rganish va statistik tahlil asosida baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'rganish maqsadi. Ushbu tadqiqot ChAP bilan og'rigan ayollarning hayot sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash va ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari ChAP bilan kasallangan ayollarning sog'lig'ini tiklash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda jami **100 nafar ayol** ishtirok etdi. Ular ikki guruhga ajratildi: